BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH.

Eshbekova Dilnoza Ibraimovna
JDPU Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22914199

Annotatsiya: Ushbu maqolada, bo‘lajak pedagoglarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish hamda o‘qituvchi nutqiga qo‘yilgan talablarni bajarish orqali ravon va ta’sirchan nutq tuzish bo‘yicha amaliy tajribalar orttiradi.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, diksiya, nutq, til, notiq, fonetika, fonologiya, talaffuz, ovoz, nutq texnikasi.

Аннотация: В данной статье будущие учителя начальной школы получат практический опыт развития своей речевой компетентности и создания беглой и эффективной речи путем выполнения требований, предъявляемых к речи учителя.

Ключевые слова: компетентность, дикция, речь, язык, оратор, фонетика, фонология, произношение, голос, техника речи.

Abstract: In this article, future elementary school teachers will gain practical experience in developing their speech competence and creating a fluent and effective speech by fulfilling the requirements for the teacher's speech.

Key words: competence, diction, speech, language, speaker, phonetics, phonology, pronunciation, voice, speech technique.

O‘qituvchining zamonaviy qiyofalaridan biri uning nutq madaniyatiga ega ekanligidadir. O‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berishda o‘qituchining nutqi ishi bilan teppa-teng ahamiyatga ega. Zotan o‘qituvchi mutaxassislikka oid ishning yirik bo‘lagini nutqi orqali amalga oshiradi. Shuning uchun uning nutqi hamma vaqt g‘oyaviy yuksak, ravon, yumshoq, dilkash bo‘lishi lozim. Nutqda va ishda subutsizlik o`qituvchi uchun noloyiqdir. Har bir nutq bolalarning yosh xususiyatlarini, bilimi va tushunchasini nazarda tutib tuzilishi shart. Shu bilan birga, o`qituvchining nutqi yosh avlod ko`z oldida uni o‘rab olgan moddiy va ma’naviy dunyoning yangi qirralarini ochib berishni maqsad qilib qo‘yadi. Demak, o‘qituvchining nutqi ta’lim-tarbiya berishning asosidir.

O‘qituvchi nutqida quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks etishi lozim: turli sheva so'zlardan foydalanmasdan, faqat adabiy tilda so‘zlashi; o‘qituvchining nutqi sodda, ravon hamda tushunarli bo'lishi; ibora va maqollar, hikmatli so‘zlar, matallar va ko‘chirma gaplardan to‘g‘ri hamda o‘rinli foydalana olishi muhimdir. Ta’lim-tarbiya faoliyatini mukammal tashkil etish, o'qituvchining jonli muloqotni samarali tashkil etishiga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchi hamda o'qituvchining muloqoti ijobiy natijalar berishi uchun o‘qituvchida o‘quvchilar bilan erkin so‘zlashuv qobiliyati bo‘lishi lozim. Holbuki, o‘qituvchi hamda o‘quvchining muloqotini bog‘lovchi vosita so‘zdir. Pedagogning so‘z boyligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, muloqot olib borish qobiliyati tez namoyon bo‘lib, ijobiy natijalarga erishishi ham juda oson bo‘ladi. Odatda, so‘z boyligi sayoz, qashshoq bo‘lgan o‘qituvchilar o‘z pedagogik faoliyatlarida o‘quvchilar bilan tez-tez muammolarga duch kelishlari mumkin. Pedagogning jonli muloqoti har qanday tarbiyaviy tadbirning mazmun hamda mohiyatini o‘quvchiga tabiiy holda yetkazadirib beradi va shu jarayonning obyekti hamda subyekti o‘rtasida muloqot sifatida mustahkam ko‘prik yaratadi hamda ichki hissiyot bilan harakatlarning yaxlitligini ta’minlaydi.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

Buyuk alloma Abdurahman Jomiy o‘z adabiy merosida so‘z va nutqning qudrati naqadar ulug‘ligini, tildek insonga chiroyli libos kiydirguvchi vosita hech qayerda bo‘lmasligini bayon etgan:

Tildagi ketma-ket xatoga hayhot,
Chiroyli kiyimlar berolmas najot.
So‘zni kiyimingdek bekamu ko‘st qil,
Yoki kiyimingni so‘zingga [1].

Til va nutq tushunchalarining mohiyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, til madaniyati tilning leksik, sintaktik, semantik, ifodalilik va turfa o‘zgaruvchanligi qay darajada rivojlangan va boy ekanligini ko‘rsatsa, nutq madaniyati nutqiy muloqot asosida borliq va shaxs haqidagi axborotni yuzaga keltirish, uni til tizimi belgilari orqali ifodalash va aniq yetkazish usulidir. Yoki til madaniyati tilning “madaniylashganlik”, adabiylashganlik, normalashganlik darajasini, lug‘at tarkibi, grammatik, semantik, stilistik jihatlardan rivojlanganlik, boylik darajasini, potensial ifoda imkoniyatlarining ko‘lamdorligini ifoda etadi. Nutq madaniyati esa tildan bemalol, maqsadga muvofiq va ta’sirchan bir tarzda foydalana olishni ta’minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir. Boshqacha aytganda, nutq madaniyati tilda mavjud bo‘lgan xilma-xil ifoda shakllaridan fikr uchun eng maqbulini tanlay bilish va shu asosda to‘g‘ri va ta’sirchan nutq tuza olish mahoratidir. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborotni tinglovchi (o‘quvchi)ga yetkazish, shu yo‘l bilan unga ta’sir qilishdan iborat.

To‘liq, mukammal shakllangan, talab darajasidagi nutq texnikasi o‘qituvchining umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim uzvi, tabir joiz bo‘lsa, tamallaridandir. Jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to‘g‘ri voqelantirish ko‘nikma va malakalarining jami nutq texnikasi demakdir. Bunda ovozning sifati, nutq jarayonida to‘g‘ri nafas olish, tovush va tovush qo‘shilmalarini aniq talaffuz qilish, aniq diksiya kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Nutq texnikasidagi bosh masala ovoz masalasidir. Asosiy quroli nutq bo‘lgan har qanday odam uchun ovoz hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Sir emaski, faoliyatning asosiy quroli nutq bo‘lgan kasblar orasida o‘qituvchilik birinchi o‘rinda turadi [2].

O‘qituvchining ovozi, talaffuzi, diksiyasi, umuman, tirik nutqi hamisha o‘quvchilar, ayniqsa, kichik sinflardagi o‘quvchilar uchun o‘ziga hos etalon, namuna vazifasini bajaradi. O‘qituvchining nutqidagi katta va kichik har qanday nuqson o‘quvchi nazaridan chetda qolmaydi, darhol uning e’tiborini tortadi. Bunday kamchilik o‘qituvchi nutqida ko‘proq kuzatilsa, o‘quvchi o‘qituvchidan nohaq bo‘lsada ranjigan hollarida mazkur nuqson asosida uni sirtdan kalaka, mazax qilishgacha borishi mumkin. Bu esa, ta’lim jarayonining olib borilishiga ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Masalan, mashhur qadimgi yunon notig‘i Demosfenning dastlab ovozi past, talaffuzi yomon, nafasi qisqa bo‘lganligidan chiroyli va ta’sirli nutq ayta olmaganligi haqida tarixchilar yozganlar. Bu sohani chuqur o‘rgangan olim S.Inomxo‘jayev ta’kidlaganidek, keyinroq Demosfen nutq texnikasi asoslarini egallashga juda jiddiy kirishgan. U bir yerto‘la qazib, shu yerto‘lada ovozini rivojlantirish, diksiya, deklamatsiya bo‘yicha oylab mashqlar qiladi. Talaffuzidagi nuqsonlar, ”r” tovushini aytolmaslik, ba’zi tovushlarni noaniq aytish kabilarni bartaraf etish maqsadida og‘ziga mayda toshlarni solib, she’rlar, turli matnlarni o‘qish bilan shug‘ullangan. Ovozini rivojlantirish, ovoz apparatlarini chiniqtirish uchun esa tepaliklarga yugurib chiqib, yugurib tushib, nafasini ushlab turgan holda she’rlarni deklamatsiya qiladi. Demosfen gapirayotganda bir yelkasini hadeb ko‘taraverish odatidan qutilish uchun yerto‘lasining shiftiga uchi o‘tkir hanjarni osib qo‘yib, yelkasini hanjarning ayni uchiga to‘g‘irlab turib, mashqlarni davom ettirgan. Ana shunday mashaqqatli va muntazam mashqlar tufayli Demosfen notiqlikning cho‘ng cho‘qqisini zabt etgan. Ammo shunga qaramay, u hech qachon tayyorgarliksiz nutq so‘zlamas, oldindan yozib qo‘yilgan matnni yodlab olar, har bir so‘z ustida puxta o‘ylanar, jumlalarni aniq va chiroyli tuzishga harakat qilar edi. Ulug‘ notiqning nutqi shu qadar sodda, ravon, mantiqan puxta va jozibali bo‘lardiki, bu faqat mashaqqatli mehnat samarasi edi [3].

Shunday ekan bo‘lajak o‘qiyuvchilar har doim ham har qanday savolga nostandart javob topadigan, o‘ziga xos tarzda murojat qila oladigan, bolaning qiziqishini uyg‘otadigan, hayajonlantira oladigan bo‘la olishi lozim. Bunday o‘qituvchi mavzuni chuqur biladi, o‘quvchilarga o‘z bilimlarini yetkazish qobilyatiga ega bo‘ladi, zamonaviy o‘qitish usullarini egallagan bo‘la oladi. Ko‘pgina

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

o‘qituvchilar, agar xohlasalar, zamonaviy ish uslublarini o‘zlashtira oladilar. Bunga erishish yo‘li oson emas, u zo‘riqishni, hamkasblar ishini kuzatishni, doimiy ravishda o‘z-o‘zini tarbiyalashni, maxsus adabiyotlarni o‘rganishni, yangi o‘qitish usullarini joriy etishni talab qiladi. Mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi egalik qiladigan narsa –bilimning ildizini samarali qilishni biladi, o‘qish jarayonida ijobiy natijaga, ish uslublarini almashtiradi, qiziqarli misollar keltiradi va bilimlarni uzatishning o‘ziga xos usullarini topadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, o‘qituvchi nutqi, estetik tomoni o‘quvchilar uchun ham muhimdir. O‘qituvchi o‘zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg‘urishi, fonetika, fonologiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda bo‘lsada, xabardor bo‘lishi, kerak bo‘lganda, o‘z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan doimo foydalanib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tugal va to‘g‘ri tuzilgan nutq o‘qituvchining nutq texnikasini,uning nutq madaniyatini yanada yaxshi va mukammal qiladi. Bu esa ta’lim jarayonining samarali tashkil etishda muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogik mahorat darslik AAXoliqov. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi “Iqtisod moliya” 2011
2. O‘qituvchi nutqi madaniyati darslik. N.Mahmudov O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Toshkent-2007
3. Notiqlik san’ati asoslari. S.Inomxo‘jayev. Toshkent. O‘qituvchi-1982

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.